



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2017 yil yanvar – iyun

Raqamlar:

- 2017 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi **1404,9** mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Eng yuqori o'sish sur'ati moliyaviy xizmatlarda **125,8 %** kuzatildi.
- Urganch shaxrining umumiy bozor xizmatlaridagi ulushi **46,8 %** ni tashkil etdi.
- Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - **788,4** ming so'mni tashkil etdi.

Boshlangan tizimli demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiya qilishni davom ettirilishi, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotdagi, xususan xizmatlar sohasidagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash 2017 yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida bozor xizmatlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,3 %** ga o'sdi. Xizmatlar hajmi **1404,9** mlrd.so'mni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida qabul qilingan choratadbirlar natijasida hisobot davrida quyidagi xizmat turlari bo'yicha yuqori o'sish sur'atlariga erishildi. Jumladan, moliyaviy xizmatlar **25,8 %** ga; ta'lim sohasidagi xizmatlar **21,5 %** ga; yashash va ovqatlanish xizmatlari **12,6 %** ga; aloqa va axborotlashtirish xizmatlar **11,1 %** ga; sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **10,3 %** ga; oshdi.



■ Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

■ Moliyaviy xizmatlar

■ Transport xizmatlari

■ Yashash va ovqatlanish xizmatlari

■ Savdo xizmatlari

■ Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

■ Ta'lim sohasidagi xizmatlar

■ Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

■ Ijara xizmatlari

■ Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

■ Shaxsiy xizmatlar

■ Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

■ Boshqa xizmatlar

**Xorazm viloyati bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari
2017 yil yanvar-iyun oylari**


Xizmatlar nomi	mlrd. so'm	O'tgan yil - ning shu davriga nis- batan foizda
Xizmatlar- jami	1404,9	110,3
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	118,3	111,1
Moliyaviy xizmatlar	184,9	125,8
Transport xizmatlari	307,2	104,9
shu jumladan: avtotransport xizmati	290,9	104,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	31,8	112,6
Savdo xizmatlari	428,7	108,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	58,0	109,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	44,5	121,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	24,3	110,3
Ijara xizmatlari	36,9	108,4
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	61,6	107,2
Shaxsiy xizmatlar	56,5	107,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,2	108,8
Boshqa xizmatlar	38,9	109,8

**2017 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining tumanlar bo'yicha
MA'LUMOTI**

Tuman va shaharlar nomi	2017 yil mlrd. so'm	O'sish sur'ati %da	Jami viloyat haj- miga nis- batan ulushi %da
Xorazm viloyati	1404,9	110,3	100
Urganch shahri	658,1	112,6	46,8
Bog'ot tumani	69,2	106,2	4,9
Gurlan tumani	74,3	107,0	5,3
Qo'shko'pir tumani	72,9	109,2	5,2
Urganch tumani	97,7	112,7	7,0
Xazarasp tumani	84,0	105,2	6,0
Xanqa tumani	71,7	107,7	5,1
Xiva tumani	79,5	110,8	5,7
Shovot tumani	68,1	105,8	4,8
Yangiariq tumani	66,2	108,8	4,7
Yangibozor tumani	63,3	108,6	4,5

Viloyat bo'yicha 2017 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining eng ko'p ulushi Urganch shahrida **46,8%**, Urganch tumanida **7,0 %**, Xazarasp tumanida **6,0%** va Xiva tumanida **5,7%** ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatida 2017 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi



2017 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha bozor xizmatlari hajmi aholi jon boshiga **788,4** ming so'mga to'g'ri keladi.

Viloyat bo'yicha 2017 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining aholi jon boshiga tumanlar bo'yicha taqqoslaganda eng ko'p hajm Urganch shahrida **4724,1** ming so'm, Yangibozor tumanida **761,5** ming so'm, Yangiariq tumanida **599,4** ming so'm, Urganch tumanida **521,7** ming so'm va Gurlan tumanida **524,5** ming so'mga to'g'ri keladi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: U. Bardiev

(0362) 224-65-16